



WOMEN'S LEADERSHIP AS A FACTOR IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN

Nilufar Yuldashevna Nasirova

Head of the Personnel Department

Tashkent State University of Oriental Studies

nilufarnasirova2017@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: women's leadership, New Uzbekistan, sustainable development, gender policy, social innovation, political participation, transformational leadership.

Received: 10.11.25

Accepted: 11.11.25

Published: 12.11.25

Abstract: This article analyzes the phenomenon of women's leadership in the context of the sustainable development strategy of the New Uzbekistan. It examines women's increasing participation in political, economic, and social life, their growing influence in decision-making, and the government's policies aimed at ensuring gender equality. The study substantiates the strategic importance of women's leadership as a driving force of social transformation, innovation, and effective governance within Uzbekistan's new development paradigm.

AYOLLAR LIDERLIGI - YANGI O'ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA

Nilufar Yuldashevna Nasirova

Xodimlar bo'limi boshlig'i

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

nilufarnasirova2017@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ayollar liderligi, Yangi O'zbekiston, barqaror rivojlanish, gender siyosati, ijtimoiy innovatsiya, siyosiy ishtirok, transformatsion liderlik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar liderligi fenomeni barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida tahlil qilingan. Ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi faolligi, ularning qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki, shuningdek, davlatning gender tenglik siyosati bilan uyg'unlikda olib

borilayotgan islohotlar chuqur ilmiy tahlil etiladi. Tadqiqotda O'zbekistonning yangi taraqqiyot modeli kontekstida ayollar liderligining ijtimoiy transformatsiya, innovatsion rivojlanish va barqaror boshqaruvdagi strategik ahamiyati asoslab beriladi.

ЖЕНСКОЕ ЛИДЕРСТВО КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Нилуфар Юлдашевна Насирова

Начальника отдела Кадров

Ташкентского государственного университета востоковедения

nilufarnasirova2017@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Аннотация:
женское лидерство, Новая Узбекистан, устойчивое развитие, гендерная политика, социальные инновации, политическое участие, трансформационное лидерство.	В статье рассматривается феномен женского лидерства в условиях Новой Узбекистана в контексте концепции устойчивого развития. Анализируется активное участие женщин в политической, экономической и социальной жизни страны, их роль в процессах принятия решений, а также государственная политика в области гендерного равенства. Исследование обосновывает стратегическое значение женского лидерства в реализации новой модели развития Узбекистана, способствующей социальной трансформации, инновационному росту и эффективному управлению.

“Ayollar ishlagan, rahbarlik qilgan joylarda tartib, adolat, halollik, madaniyat yuqori pog‘onada bo‘ladi”

Sh.M. Mirziyoyev

Kirish. XXI asr globallashuv davrida barqaror rivojlanishning asosiy tayanchi sifatida inson kapitalining samarali rivoji, ijtimoiy tenglik va innovatsion boshqaruv modellari oldinga chiqmoqda. Bu jarayonda ayollar liderligi fenomeni jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy transformatsiyasida muhim o‘rin tutadi. Chunki ayollarning qaror qabul qilishdagi faol ishtiroki boshqaruv tizimini inklyuziv, mas’uliyatli va barqaror qiladi. Yangi O‘zbekiston davrida bu yo‘nalish davlat siyosatining ustuvor strategik yo‘nalishiga aylandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ayollarning faolligini oshirmasdan, jamiyatda tenglik, adolat va taraqqiyotga erishish mumkin emas.”

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda gender siyosatining institutsional bazasi tubdan yangilandi. 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risidagi Qonun, BMT bilan qo‘shma dasturlar ayollarni siyosiy va iqtisodiy hayotning markaziga olib chiqdi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2016-yilda Oliy Majlis deputatlari orasida ayollar ulushi 16 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 32,1 foizga yetdi. Mahalliy kengashlarda esa ayollar ulushi 27 foizdan oshdi. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda ayollarni siyosiy qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etish ko‘rsatkichi bo‘yicha eng tez o‘sayotgan davlatlardan biridir. Shu bilan birga, ayollar liderligi masalasi nafaqat siyosiy ishtirok, balki barqaror rivojlanishning strategik omili sifatida ahamiyat kasb etmoqda. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG-5)da ayollarni kuchaytirish, ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, hamda siyosiy hayotdagi yetakchiligini ta‘minlash global vazifa sifatida belgilangan. Yangi O‘zbekistonning modernizatsiya siyosati ham aynan shu global yo‘nalish bilan uyg‘un. Ayollar rahbarligi ijtimoiy adolat, inklyuziv boshqaruv va inson kapitalini rivojlantirishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Asosiy qism. Ayollar liderligi zamonaviy siyosatshunoslik va ijtimoiy fanlarda ko‘p qirrali fenomen sifatida qaraladi. Uning mohiyati ayollarning boshqaruv, siyosiy qaror qabul qilish, ijtimoiy transformatsiya va innovatsion rivojlanishdagi faol rolini ifodalaydi. Dastlabki yetakchilik nazariyalari liderlikni “insonlarni o‘zgarish sari ruhlantiruvchi, qadriyatlarga asoslangan ta’sir mexanizmi” sifatida talqin etgan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ayollar liderligi - bu an’anaviy hokimiyat modelidan farqli, muloqot, hamkorlik va empatiya asosida boshqarish usulidir.

Transformatsion liderlik nazariyasi ayol liderlar tomonidan yaratilgan o‘zgarishlar jarayonini empatik aloqa, ishonch va motivatsiya orqali amalga oshirilishini ta’kidlaydi. R.Riggio fikricha, ayollar boshqaruvdagi yondashuvi ijtimoiy ishonchni mustahkamlab, jamoa samaradorligini oshiradi.

Feministik siyosatshunoslikda ayollar liderligi “g‘amxo‘rlik etikasiga asoslangan boshqaruv madaniyati” sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv patriarxal hokimiyat modeliga qarama-qarshi turib, jamiyatni muvozanatli boshqaruv, hamjihatlik va adolat orqali rivojlantirishni maqsad qiladi.

Zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot nazariyalarida ayollar liderligi ijtimoiy kapital va tarmoq aloqalari bilan bog‘liq fenomen sifatida qaraladi. Giddensning strukturatsiya nazariyasida ayollar faolligi ijtimoiy tizimdagi o‘zgarishlarning “quyi qatlamlardan yuqoriga qarab” shakllanishiga turtki beradi. Bu yondashuv Yangi O‘zbekiston kontekstida alohida ahamiyatga ega, chunki mamlakatda siyosiy islohotlar aynan ijtimoiy faollik, shu jumladan, ayollar tashabbuslari orqali mustahkamlanmoqda.

Barqaror rivojlanish kontsepsiyasi ayollarning iqtisodiy va siyosiy jarayonlardagi ishtirokini inson markazidagi rivojlanishning ajralmas elementi sifatida belgilaydi.

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari – SDG-5 (“Gender tenglik”) ayollar liderligini siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi global mexanizm sifatida e’tirof etgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD, 2022) tahliliga ko’ra, ayollar rahbarlik darajasining oshishi boshqaruvning samaradorligini 15–20 foizga oshiradi, korrupsiya darajasini esa 10–15 foizga kamaytiradi. Bu raqamlar ayollar boshqaruv uslubining ehtiyotkor, tahliliy va ijtimoiy mas’uliyatli xarakterini tasdiqlaydi.

Yangi O‘zbekistonning gender siyosati aynan shu tamoyillarga asoslanadi. Ayollar liderligi Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish modelida inson kapitalini rivojlantiruvchi, ijtimoiy inklyuzivlikni kuchaytiruvchi va innovatsion boshqaruvni ta’minlovchi tizimli omil sifatida qaralmoqda.

Yangi O‘zbekiston islohotlar davrida ayollar liderligini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining strategik yo‘nalishiga aylandi. Buning huquqiy, institutsional va ijtimoiy asoslari bosqichma-bosqich shakllandi.

Birinchi bosqich (2017–2019) – gender tenglikning huquqiy asoslarini yaratish davri bo‘ldi. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi bilan O‘zbekiston Markaziy Osiyoda gender siyosatini konstitutsion darajada tan olgan birinchi davlatga aylandi. Ushbu qonun nafaqat ayollarning huquqlarini himoya qildi, balki ularning davlat boshqaruvida ishtirok etishiga kafolat berdi.

Ikkinchi bosqich (2020–2022) – institutsional mexanizmlarni yaratish davridir. Bu davrda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Ayollar daftari tizimi, hamda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi huzurida Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Ushbu institutlar siyosiy qarorlar qabul qilishda ayollar salohiyatini kuchaytirish, ularni tayyorlash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Uchinchi bosqich (2023-yildan hozirgacha) – ayollar liderligini barqaror rivojlanish siyosatiga integratsiya qilish bosqichi hisoblanadi.

BMT Taraqqiyot dasturi ma’lumotiga ko’ra O‘zbekistonda ayollar bandlik darajasi 46,5% ni tashkil etadi, bu Markaziy Osiyo o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqoridir. Ta’lim tizimida ayollar o‘qituvchilarining ulushi 71%, tibbiyot sohasida 68%, oliy ta’lim muassasalarida ayol talabalar soni 43% ga yetgan. Bu raqamlar ayollarni ijtimoiy kapital sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi. Ularning jamiyatdagi iqtisodiy faolligi siyosiy ishtirokni kuchaytiradi, siyosiy ishtirok esa o‘z navbatida, barqaror rivojlanish siyosatini mustahkamlaydi.

UN Women tahliliga ko'ra, O'zbekiston gender siyosati Markaziy Osiyo mintaqasida "integratsiyalashgan yondashuv" modeli bo'yicha yetakchi o'rinda turadi, chunki u siyosiy ishtirokni iqtisodiy mustaqillik bilan uyg'unlashtira oldi.

Yangi O'zbekistonning ayollar liderligini rivojlantirish siyosati o'zining uch pog'onali tizimi bilan ajralib turadi: normativ asos – gender tenglikni qonuniy jihatdan mustahkamlash; institutsional tizim – ayollarni boshqaruvga tayyorlovchi mexanizmlarni shakllantirish; ijtimoiy mexanizm – ayollar iqtisodiy mustaqilligi va ijtimoiy faolligini kuchaytirish. Bu uchlikning uyg'unligi O'zbekistonni mintaqada gender siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan davlat sifatida ko'rsatmoqda. Ayollar liderligi endilikda Yangi O'zbekistonning barqaror rivojlanish siyosatining nafaqat elementi, balki strategik kuch manbai sifatida shakllandi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosiy ustuni — bu ijtimoiy barqarorlik va inklyuzivlikdir. Jamiyatdagi ayollar faolligi va ularning liderlik salohiyati bevosita inson kapitalining rivojlanishiga ta'sir etadi. O'zbekiston sharoitida ayollar ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki milliy modernizatsiya jarayonining asosiy yo'nalishiga aylandi. O'zbekiston Respublikasining "Inson qadri uchun" tamoyiliga asoslangan siyosiy modeli ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashni maqsad qiladi. Bugungi kunda ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, madaniyat va OAV sohalarida ayol rahbarlarning ulushi 60 foizdan oshgan.

Ijtimoiy barqarorlikning yana bir ko'rsatkichi — mahalla tizimidagi ayollar faoliyatidir. 2024-yilda respublika bo'yicha 9000 dan ortiq mahalla raislari orasida ayollar ulushi 27 foizni tashkil etmoqda. Mahalla ayol liderlari oilaviy nizolarni kamaytirish, ayollar bandligini oshirish va yoshlarni tarbiyalashda bevosita ijtimoiy vositachi sifatida qatnashmoqda.

Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aholining 68 foizi ayollar rahbarligidagi tashkilotlarda boshqaruv "adolatliroq va insonparvarroq" deb hisoblaydi. Bu ayollar rahbarligining ijtimoiy ishonchni tiklashdagi muhim rolini isbotlaydi. Ayollar liderligi siyosiy tizimning ochiqqligi, hisobdorligi va barqarorligini oshiruvchi omil sifatida qaraladi. Zamonaviy siyosatshunoslikda bu holat "gender inklyuziv boshqaruv modeli" deb nomlanadi. Mazkur modelga ko'ra, siyosiy qarorlar qabul qilishda ayollar ishtirokining ko'payishi demokratiya sifatini oshiradi, korrupsiyani kamaytiradi va siyosiy ishonchni mustahkamlaydi.

O'zbekiston tajribasida ayollar liderligi siyosiy islohotlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. 2019-yilda Saylov kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, siyosiy partiyalar nomzodlarining kamida 30 foizi ayollar bo'lishi shart etib belgilangan. Bu kvota 2024-yilgi parlament saylovlarida 33 foizga yetdi. Siyosiy tizimda ayollar rahbarligining kuchayishi siyosiy madaniyatni ham sifat jihatidan o'zgartirmoqda. Ayol deputatlar ijtimoiy masalalar — ta'lim, sog'liqni saqlash, gender tengligi, ekologiya — kabi sohalarda faol qonun tashabbuskorlari

sifatida namoyon bo'lmog'da. Masalan, 2023-yilda qabul qilingan "Oila kodeksiga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi, "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qaror tashabbusi aynan ayol deputatlar tomonidan ilgari surilgan.

Ayollar liderligi diplomatik sohada ham kuchaymog'da. BMT, ShHT, IHT kabi xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston ayollari yuqori lavozimlarni egallamog'da. Bu nafaqat siyosiy tenglik, balki mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlashga xizmat qilmog'da.

Iqtisodiy barqarorlik gender tenglik va ayollar rahbarligi bilan chambarchas bog'liq. Jahon banki ma'lumotiga ko'ra, ayollar rahbarligidagi korxonalar moliyaviy intizom, inson resurslaridan samarali foydalanish va ijtimoiy mas'uliyat darajasi bo'yicha erkaklar boshqaruvidagi korxonalardan 15–20 foizga yuqori natija ko'rsatgan.

O'zbekiston iqtisodiyotida ayollar tadbirkorligi milliy yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning 28 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan 2,3 baravar ortgan. Ayollar rahbarligidagi kichik va o'rta biznes subyektlari soni 2024-yilda 260 mingdan oshgan. Bu nafaqat iqtisodiy mustaqillikni ta'minlamog'da, balki bandlik va ijtimoiy muvozanatni saqlashga ham xizmat qilmog'da.

Ayollar liderligi iqtisodiyotning barqarorligini quyidagi yo'llar bilan ta'minlamog'da:

innovatsion boshqaruv – ayollar rahbarligida raqamli texnologiyalar va ekologik yechimlarga e'tibor yuqori;

ijtimoiy mas'uliyat – ayollar rahbarligidagi korxonalar xodimlarning ijtimoiy himoyasiga ko'proq mablag' ajratadi;

moliyaviy intizom – ayol rahbarlar boshqaruvida korruptsiya xavfi pastroq, resurslardan oqilona foydalaniladi;

Bu tahlillar ayollar rahbarligi iqtisodiy o'sish, barqaror investitsion muhit va ijtimoiy adolatning real kafolati ekanini ko'rsatadi.

Xulosa. Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichi - inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yangi davrdir. Ushbu jarayonda ayollar liderligi nafaqat gender tenglikning belgisi, balki milliy barqaror rivojlanish strategiyasining asosiy drayveri sifatida shakllanmog'da.

Ayollar liderligi sotsiologik, siyosiy va boshqaruv nazariyalari kontekstida transformatsion liderlik konsepsiyasiga mos keladi. Bu modelda ayol liderlar jamiyatdagi o'zgarishlarni empatiya, ishonch, hamkorlik va ijtimoiy mas'uliyat orqali amalga oshiruvchi subyekt sifatida talqin etiladi. Ayol liderlik boshqaruvda "insonparvar yondashuv"ni kuchaytirib, davlat siyosatining barqarorlik komponentiga aylanmog'da.

Feministik siyosiy nazariya nuqtai nazaridan qaraganda, ayollar liderligi O'zbekiston jamiyatida patriarxal ijtimoiy tizimdan inklyuziv boshqaruv madaniyatiga o'tishning muhim belgisi bo'lib xizmat qilmoqda. Shu jihatdan, Yangi O'zbekiston siyosati gender yondashuvni "tenglik" darajasidan "isbotlangan samaradorlik" darajasiga olib chiqdi.

2017–2024-yillar oralig'ida mamlakatda ayollar liderligini qo'llab-quvvatlovchi huquqiy va institutsional tizim to'liq shakllandi.

Empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2016–2024-yillar davomida ayollar siyosiy ishtiroki ikki baravar ortgan: Oliy Majlisda 32%, mahalliy kengashlarda 27,3% ayol deputatlar faoliyat yuritmoqda. Bu o'sish nafaqat kvotalar hisobiga, balki ayollarning siyosiy madaniyatidagi o'sish, ijtimoiy ongdagi transformatsiya natijasidir. Xalqaro tashkilotlar - UNDP, OECD, UN Women - O'zbekiston tajribasini "gender integratsiyasi orqali modernizatsiya" modeli sifatida e'tirof etmoqda. Bu esa Yangi O'zbekistonni Markaziy Osiyo mintaqasida gender siyosatining yetakchi innovatori sifatida ko'rsatadi.

Ayollar rahbarligi ijtimoiy mas'uliyat, adolat va halollik tamoyillarini kuchaytirgan holda, davlat boshqaruvi va biznesda yangi boshqaruv madaniyatini shakllantirmoqda. Ayollar liderligi Yangi O'zbekistonning barqaror rivojlanish paradigmasida modernizatsiya jarayonlarini tezlashtiruvchi, ijtimoiy ishonchni mustahkamlovchi va siyosiy tizimni demokratlashtiruvchi markaziy kuch sifatida qaralmoqda.

Bu yo'nalish nafaqat davlat siyosatining natijasi, balki yangi O'zbekiston jamiyatining madaniy va ma'naviy yangilanishining ham ko'zgasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. - B 464.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. -Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2024. - 560 b.
3. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi Axborot-qidiruv tizimi. www.lex.uz
4. N.Nishonova. Davlat boshqaruvi tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalari. "Extremum-Press" bosmaxonasi. Toshkent-2013. 84 b.
5. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. YUNAKS-PRINT. - Toshkent: 2005. -170 b.
6. Ibrohim Shuhratovich Fayziyev "Gender tengligi: ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish/ academic research in edicational sciences valume 2/issue2 /2021 issn:2181-1385
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati rasmiy sayti, <https://senat.uz/>

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi rasmiy sayti,
<https://parliament.gov.uz/>